Magnitoelektrik mexanizmning ishlash prinsipi tokli o'tkazgich bilan doimiy magnit maydoni orasida bo'ladigan o'zaro ta'sir hodisasiga asoslangan. Doimiy magnit ramka atrofida havo oralig'ida bir tekis va radial yo'nalgan magnit maydon hosil qiladi. Asbobni zanjirga ulaganda g'altakda o'zgarmas tok paydo bo'ladi. Ma'lumki, magnit maydondagi tokli o'tkazgichga elektromagnit kuch ta'sir qiladi; bu kuchning yo'nalishi chap qo'l qoidasi asosida aniqlash mumkin. Aylantiruvchi moment M_{ayl} elektromagnit kuchlar qonuni asosida aniqlanadi. Bunda har bir o'tkazgichga ta'sir etayotgan kuch $f = B * I * l$ bu erda:

V-havo oralig'idagi magnit induksiya;

l -o'tkazgichning aktiv uzunligi;

I-o'tkazgichdagi tok kattaligi.

G'altakning W o'rami ikkita aktiv tomonga ega. Elkaga qo'yilgan kuchlar g'altak kengligi b ning yarmiga teng. Demak, aylantiruvchi moment:

$$M_{ayl} = 2 * f * W * \frac{b}{2} = B * I * W * l * b$$

Agar $l * b = S$ g'altak yuzasi bo'lsa, u holda

$$M_{ayl} = W * B * I * S = c_1 * I .$$


Teskari ta'sir ko'rsatuvchi moment M_{tes} tortqilarning yoki spiral prujinalarning buralishidan hosil bo'ladi va ularning buralish burchagiga proporsionaldir:

$$M_{mec} = c_2 * \alpha, \text{ bu erda } s_2 - \text{ prujinaning bikrlilik koeffitsienti.}$$

Momentlar tenglashganda $M_{ayl} = M_{tes}$ yoki $c_1 * I = c_2 * \alpha$ strelka surilishidan to'xtaydi. Tortqi yoki spiral prujinalarning burilish burchagi bir vaqtda asbob strelkasining surilish burchagi hamdir. Demak, strelkaning surilish burchagi:

$$\alpha = \frac{c_1}{c_2} I = c * I \text{ Qo'zg'aluvchan qismning burilish burchagi o'lchanayotgan tokka}$$

to'g'ri proporsionaldir. Shuning uchun magnitoelektrik asboblarning shkalasi tekisdir, bu esa asbobning afzalligi hisoblanadi.



Magnitoelektrik mexanizmli elektr o'lchash asboblarning afzallik va kamchilik tomonlari

Magnitoelektrik tizimga taalluqli asboblarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- 1) aniqlik sinfining yuqoriligi;
- 2) tashqi magnit maydonlar tavsifining kam sezishi (chunki ular o'zining kuchli magnit maydoniga ega);
- 3) shkalaning tekisligi;
- 4) o'zi iste'mol qiluvchi quvvatning ancha kichik bo'lishi (sezgirligining yuqoriligi).

Uning kamchiliklariga ortiqcha yuklanishga sezgirliги, mexanizmlarning nisbatan qimmatligini keltirish mumkin.


Magnitoelektrik o'lchash mexanizmlaridan yuqori sezgir asboblarda (ampermetr, voltmetr va galvonometrlar) tayyorlashda foydalanilib, asosan nol indikatorlar (nol asboblarda), ya'ni zanjir yo'qligini qaydlagichlar (fiksatorlar) sifatida ishlatiladi.

Ushbu mexanizmning kamchiligi uning nisbatan qimmatligidir.

Elektrodinamik va ferrodinamik mexanizmli elektr o'lchash asboblarning tuzilishi va ishlash prinsipi.

Elektrodinamik mexanizmli asboblarning ishlashi tokli o'tkazgichlarning o'zaro ta'sir prinsipi (toklari qarama-qarshi yo'nalgan, ikkita o'tkazgich bir-biridan itarilishi, toklari bir xil yo'nalishda bo'lsa, bir-biriga tortilishi) ga asoslanadi. Bunday o'zaro ta'sirni g'altaklardan biridagi tokning boshqa g'altakda hosil


bo'lgan tokning magnit maydoni bilan o'zaro ta'siri, deb xulosa chiqarish mumkin. Elektrodinamik mexanizmlil asboblarning tashqi magnit maydon ta'siriga berilishi ularning kamchiligi hisoblanadi. Elektrodinamik mexanizmlil asboblari, elektromagnit asboblari kabi enargiyani ancha ko'p oladi. Elektrodinamik mexanizmlil asboblarning sezgirligi juda yuqori bo'lganligidan ular asosan, ko'chma laboratoriya asboblari (aniqlik sinfi 0,1-0,5) hisoblanib, ampermetrlar va voltmetrlar sifatida ishlatiladi.



Elektrodinamik mexanizmlil asboblarning tashqi magnit maydon ta'siriga berilishini va aylantiruvchi momentining nisbatan kichik bo'lishini mexanizmda elektrotexnik po'lat plastinkalardan yoki permalloydan iborat ferromgnitli magnit o'tkazgichni qo'llash bilan bartaraf etish mumkin. SHunday magnit o'tkazgichli elektrodinamik asboblari ferrodinamik asboblar deb ataladi. Ularning ishlash prinsipi elektrodinamik asboblarnikiga o'xshashdir. Ferrodinamik asboblarning tuzilishi mustahkam va ishonchlidir, ular deyarli tashqi magnit maydoni ta'sirini sezmaydi.

Induksion mexanizmlil elektr o'lchash asboblarning tuzilish va ishlash prinsipi

Induksion mexanizmlil asboblarda aylantiruvchi moment qo'zg'almas konturlar hosil qilgan o'zgaruvchan magnit oqimlari va asbobning qo'zg'aluvchan qismida shu oqimlar induktivlangan uyurma toklarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Bunday asboblarning ishlash prinsipidan ko'rinadiki, ular faqat o'zgaruvchan tok zanjirlarida qo'llanishi mumkin. Hozirgi vaqtda induksion o'lchash energiyasi mexanizmlari faqat elektr schyotchiklarida qo'llaniladi.



Induksion schyotchik ishlashining asoiy sharti elektromagnit g'altaklardagi toklar orasida fazalar siljishi mavjud bo'lishidadir. Elektr energiyasi bir fazali schyotchigining $SO=1$ turi keng tarqalgan . U –simon 1 va T –simon 2 qo'zg'almas elektromagnitlarning o'zgaruvchan oqimlari o'qqa o'rnatilgan alyuminiyli engil disk 3 ni kesib o'tadi. O'zgaruvchan oqimlar induksiyalangan toklar (uyurma toklar) bilan elektromagnit oqimlari o'zaro ta'sirlashib, aylantiruvchi momentni hosil qiladi. Bu moment diskka ta'sir qiladi va uni aylantiradi.

Elektr energiyasi schyotchigi yig'uvchi (jamlovchi) asbob bo'lib, ko'rsatuvchi qismi prujina bilan cheklanmagandir. U biror vaqt davomida (bir soat, bir sutkada, bir oyda va h.k.) sarflangan elektr energiyasini hisobga oladi. Pastki elektromagnit 1 ning chulg'ami schyotchikning nominal tokiga mos keladigan, ko'ndalang kesimi nisbatan yo'g'on simdan o'ralgan (yasalgan) bo'lib, tok chulg'ami deb ataladi. U zanjirga ampermetr kabi ketma-ket ulanadi. Elektromagnit 2 ning chulg'ami esa ingichka simdan 8-12 ming o'ram qilib o'raladi va voltmetr kabi tarmoqqa parallel ulanadi.

« ELEKTR ENERGIYASIDAN XALQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH »

fanidan glossariylar.

Glassariy – biror teksdagi notanish, tushunishi qiyin so'zlar lug'ati, izohi, sharqi.

Elektrotexnika – elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, o'zgartirish va iste'mol qilish vositalarini o'rganadigan fan.

Elektr zanjiri – elektr energiyasi manbai, uzatuvchi sim, o'zgartiruvchi (to'g'rilagich, transformator), nazorat qiluvchi (o'lchov asboblari), himoya qiluvchi (saqlagich, rele) va iste'mol qiluvchi vositalar o'zaro ketma-ket ulangan, ya'ni elektr energiyasidan amalda foydalanish uchun tuzilgan qurilmalar o'zaro ketma-ket ulangan to'plam.

Elektr sxema – elektr zanjirining zanjir elementlarining shartli grafik va harfli belgilari orqali ifodalangan grafik tasviri.

Element – zanjir tartibidagi har bir qurilma.

Asosiy element – bu elementlarsiz elektr energiyasidan amalda foydalanib bo'lmaydi. Ularga tok manbai, uzatish simi, iste'molchilar kiradi.

Yordamchi element – transformator, to'g'rilagich, o'lchov, himoya, komutatsion asboblari kiradi.

O'zgaruvchan tok – T – davr deb ataladigan vaqt davomida tokning barcha qiymatlari davriy takrorlanib turuvchi tokka aytildi.

O'zgaruvchan tokning oniy qiymati – tokning biror momentdagi qiymatiga aytiladi.

O'zgaruvchan tokning amplitudaviy qiymati – tokning bir davr mobaynidagi eng katta qabul qilgan qiymati.

O'zgaruvchan tokning effektiv yoki ta'sir etuvchi qiymati – deb R qarshilikda bir davr mobaynida o'zgaruvchan tok qancha issiqlik ajratsa, shuncha issiqlik ajrata oladigan o'zgarmas tokning qiymatiga aytiladi.

Elektr akkumulyatori – o'zgarmas tok manбайдan olingan elektr energiyasini to'plash (zaryadlanish) va ma'lum vaqt saqlash, so'ng zaruriyatga qarab iste'molchilarga berish xususiyatiga ega bo'lgan golvani element.

Aktiv qarshilik – elektr zanjiridan tok o'tganda zanjir bu tokka shunday qarshilik ko'rsatadiki, uni engishga tokning bajargan ishi hisobiga faqat issiqlik chiqadigan qarshilikka aytiladi.

Reaktiv qarshilik – elektr zanjiri to'la qarshiligining mavhum qismi bo'ib, u induktiv ($X_L = L\omega$), sig'im qarshilik ($X_C = 1 / L\omega$) yoki ularning yig'indisidan iboratdir. $X_p = X_L + X_C$ birligi Om.

Aktiv quvvat – bir davr mobaynida o'zgaruvchan tokdan hosil bo'ladigan foydali ishning o'rtacha qiymati **R** harfi belgilanadi. U qaytmas bo'lib isrof bo'ladi. Birligi Vatt.

Reaktiv quvvat – elektr zanjirlarining **L** va **C** elementlaridan o'zgaruvchan tok o'tganda hosil bo'ladigan quvvat **Q** harfi bilan belgilanadi. Birligi volt – amper – reaktiv qisqacha **BAR** ko'rinishida yoziladi.

To'la quvvat - elektr zanjirining manbadan olayotgan kuchlanish va tokning effektiv qiymatlari ko'paytmasidir. **S** bilan belgilanadi, birligi **VA** (voltamper).

To'la qarshilik – o'zgaruvchan tok zanjiri **R, L, C** dan tashkil topgan bo'lsa ularning o'zgaruvchan tokka ko'rsatadigan qarshiligidir. To'la qarshilik **Z** harfi bilan belgilanadi. $Z = \sqrt{R^2 + (X_L - X_C)^2}$

Rezonans – ma'lum sharoitda tebranuvchi jism amplitudasining keskin ortib ketish hodisasidir. Rezonans turlari ko'p.

Kuchlanishlar rezonansi - **R, L, C** o'zaro ketma-ket ulangan zanjirdan o'zgaruvchan tok o'tganda sig'im va induktiv qarshilik o'zaro teng bo'lganda kuchlanishlar rezonansi sodir bo'ladi.

Toklar rezonansi – **R, L, C** o'zaro parallel ulangan zanjirdan o'zgaruvchan tok o'tganda sig'im va induktiv qarshiliklar o'zaro teng bo'lganda toklar rezonansi sodir bo'ladi, ya'ni tok ortib ketadi.

Rezonans chastota – $X_L = X_C$ shartidan topiladi. $L\omega = 1 / C\omega$ $\omega^2 = 1 / LC$ $\omega = 2\pi / T = 2\pi f$ **frez** = $1 / 2\pi \sqrt{LC}$ **frez** – rezonans chastota deyiladi.

Reostat – elektr zanjiridagi tok kuchi va kuchlanishni rostlashga mo'ljallangan asbob. Reostat zanjirga ketma-ket ulansa tok kuchini, parallel ulansa kuchlanishni rostlashga imkon bo'ladi. Rheostat sim shaklidagi nixromdan tayyorlanadi. U o'zgaruvchan qarshilik vazifasini ham o'taydi.

Rezistor – tok va kuchlanishni cheklash uchun zanjirga ulanadigan qurilma.

Qarshilik – zanjir qismining yoki iste'molchining elektr xossalaridan birini xarakterlovchi parametr. Aktiv, induktiv, sig'im, to'la qarshilik kabi turlarga bo'linadi.

Izolyator – elektr tokini o'tkazmaydigan material – chinni, shisha, kauchuk, rezina kabilar.

Elektr izolyatori – solishtirma elektr qarshiligi juda katta bo'lgan modda, ya'ni dielektriklar.

Elektr izolyasiya – elektr simlarining boshqa tok o'tkazuvchi qismlarga tegib ketish havfidan saqlash maqsadida ularni ajratib qo'yish uchun qo'llaniladigan material.

Erga ulash – elektr mashinasi, transformator kabi elektrotexnik qurilmaning bir qismini er bilan tutashtirish. Bunda gaz trubasi yonuvchi moddasi bor jismlardan foydalanilmaydi.

Faza burchagi - sinusoidal tok tenglamasidagi argument – $(\omega t + \varphi_0)$
 $i = I \sin(\omega t + \varphi_0)$

Fazometr – o'zgaruvchan tok zanjiridagi tok va kuchlanish orasidagi faza burxhagini o'lchaydi.

Tok parametrlari – tok kuchi, kuchlanishi, qarshilik, induktivlik, sig'im zich ko'p uchraydigan parametrlardir.

Ayrim kichik kattaliklar – milli = 10^{-3} , mikro = 10^{-6} , nano = 10^{-9} , niko = 10^{-12} .

Ayrim katta kattaliklar – kilo = 10^{+3} , mega = 10^{+6} , giga = 10^{+9} .

Qisqa tutashuv - tok o'tuvchi simlarning bir-biriga nagruzkasiz ulanishi tok kuchi keskin ortib ketadi.

Elektr generatori – turli energiyadan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan elektromexanik asbob.

Elektron generator – elektron asboblarda yordamida doimiy elektr tokian shakli va chastotasi turlicha bo'lgan elektr tebranishlar ishlab chiqaradigan qurilma.

Uch fazali tok – E.Yu.K.lari bir xil chastotali va faza bo'yicha bir-biriga nisbatan 120° burchakka siljigan uchta bir fazali elektr zanjirlar to'plamiga aytiladi.

Faza – uch fazali sistemasini tashkil etuvchi ayrim fazalar.

Yulduz usulida ulash – uchta cho'lg'am oxirlari o'zaro tutashtirilgan to'rt simli sistema.

Uchburchak usulida ulash – birinchi cho'lg'am oxiri ikkinchi cho'lg'am boshi bilan, ikkinchi cho'lg'am oxiri uchunchi cho'lg'am boshi bilan, uchunchi cho'lg'am oxiri birinchi cho'lg'am boshi bilan ulanish usuli.

Faza kuchlanishi – biror liniya simi va neytral sim orasidagi kuchlanish.

Liniya kuchlanishi – liniyalar orasidagi kuchlanish.

Cho'lg'am uchi – g'altakning tok manbaiga ulanadigan uchiga aytiladi.

Cho'lg'am oxiri – g'altakning iste'molchiga ulanadigan uchi.

Stator – elektr mashinasining qo'zg'almaydigan qismi.

Rotor – elektr mashinasining aylanadigan qismi.

Transformator – tok parametrlarini o'zgartirib uzatuvchi.

Kuch transformatori – kuchlanishni o'zgartirib uzatadigan transformator.

Transformatorning birlamchi cho'lg'ami – tok manbaiga ulanadigan cho'lg'am.

Ikkilamchi cho'lg'am – iste'molchi ulanadigan cho'lg'am.

Maxsus transformator – o'zgaruvchan tokning kuchlanishdan boshqa parametrlarini o'zgartiradigan transformatorlar.

Induktor – elektr mashinasining yordamida magnit maydon hosil qiladigan qismi – elektromagnit.

Yakor – elektr mashinasining tok paydo bo'ladigan qismi.

Kollektor – elektrotexnik mashinalarining elektr toki yo'nalishini to'g'rilovchi qismi.

Noelektrik kattalik – elektrik bo'lmagan (mexanik – tezlik, bosim, temperature, namlik).

Datchik – o'zgartirgich, noelektrik kattalikni elektrik kattaligiga o'zgartirgich.

Kollektr – tranzistorning elektrodlaridan birining nomi.

Elektrovakuum asbobi - vakuumda elektr tokining paydo bo'lishi faqat termoelektr harakati bilan bog'lik asboblardir.

Ion asboblardir – uchib borayotgan elektronlarning biror gaz bug'larini ionlashga asoslangan asbob.

Yarim o'tkazgichli asbob – diod, transistor.

Electron to'g'rilagich – electron asbob yordamida o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka aylantiruvchi asbob.

Electron asboblardir – radiolampa, yarim o'tkazgichli diod, transistor.

Asinxron – barovar emas $n_1 > n_2$.

Sinxron – barovar $n_1 = n_2$.

Aylanuvchi magnit maydon – statorga joylashgan uch fazali tok cho'lg'amlaridan tok o'tish jarayonida hosil bo'luvchi va aylanib turuvchi maydon.

Yakor reaksiyasi – doimiy tok mashinasi yakorida hosil bo'lgan tok magnit maydonining stator (inductor) hosil qilgan elektromagnit maydoniga ta'siri.

Tok komutatsiyasi – yakor aylanganda parallel tarmoqlar uchlarining navbati bilan tok oluvchi shlyotkalariga ulanishi va bu tokning (endi doimiy) iste'molchiga borishi.

O'zgarmas tok generatorining salt ishlash xarakteristikasi – generator nagruzkasiz ishlaganda uning aylanishkar soni o'zgarmas ($n=const$) bo'lganda yakorda hosil bo'lgan E.Yu.K. (**Eya**) bilan uyg'otish toki (**Iuyg'**) orasidagi bog'lanish.

O'zgarmas tok generatorlarining tashqi xarakteristikasi – generator chiqishidagi kuchlanishning nagruzkaga tokiga bog'liqligi.

O'zgarmas tok generatorining rostdash xarakteristikasi – nagruzkaga toki o'zgarimganda generator qisqichlaridagi kuchlanishni o'zgartirmay saqlash uchun uyg'otish cho'lg'amidagi tokni qanday o'zgartirish kerakligini ko'rsatadi.

O'zgarmas tok dvigatelining ish xarakteristikasi – $U=const$; $Iuyg'=const$ bo'lganda dvigatel aylanish chastotasining (**n**), aylantiruvchi (**M**)

momentining, dvigatel foydalanish ish koeffisientining yakorda hosil bo'lgan tokka bog'liqligi tushuniladi.

O'zgarmas tok dvigatelining mexanik xarakteristikasi – dvigatel vali aylanish chastotasining mexanik momentga bog'liqligi.

O'zgarmas tok dvigatelining foydali ish koeffisienti – dvigatel sarflayotgan foydali P_2 quvvatning tarmoqdan olayotgan quvvat (P_1)ga nisbatining foizlarda ifodalangan qiymati.

Elektr yuritma – ish mashinasini xarakatga keltiruvchi elektr dvigatel, dvigateldan ish mashinasiga quvvatni uzatuvchi moslama (transmissiya) va elektr dvigatelni boshqaruvchi qurilmalar to'plami.

Ish mashinasi – biror texnologik operatsiyani amalgam oshiradigan mashina (masalan tikuv mashinasi).

Elektr dvigatel – elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantiruvchi mashina.

Transmissiya – quvvatni tasma, tishli g'ildiraklar yoki kardan vali orqali uzatuvchi moslama.

Boshqarish apparatlari – elektr dvigatelni yurgizuvchi, to'xyayuvchi, tezligini o'zgartiruvchi, reverslovchi apparatlar – ularni ishga tushuruvchi apparatlar deyiladi, ikkinchisi himoya apparatlari – saqlagich va relelar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston Respublikasi sanoatini 2011-2015 yillar rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori. Darakchi. №15, 11.04.2014 yil, 6-7 betlar.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilga mo‘ljallangan investisiya dasturi to‘g‘risida” gi qarori. Darakchi. №15, 11.04.2014 yil, 6-7 betlar.
3. Karimov I.A. “2014 yil 18 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaamasining 2012 yilda respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilgi iqtisodiy dasturning ustivor vazifalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma‘ruzasi.
4. V.S.Popov, S.A.Nikolayev. “Elektrotexnika”. Toshkent. O‘qituvchi – 1973 yil.
5. A.Raximov. “Umumiy elektrotexnika”. Toshkent. O‘qituvchi – 1981 yil.
6. A.Raximov. “Elektrotexnika va elektronika asoslari”. Toshkent. O‘qituvchi – 1988 yil.256-bet.
7. D.Ye.Yevdokimov. “Umumiy elektrotexnika”. Toshkent. O‘qituvchi – 1995 yil.
8. V.N.Kamnev. “Chteniye sxem i chetyajey elektroustonovok”. Moskva. Vysshaya shkola – 1986 god, 144- str.
9. A.S.Karimov va boshqalar. «Elektrotexnika va elektronika asoslari». T.: o‘qituvchi.-1995

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Sh.M.Kamolov, A.Sh.Axmedov. “Elektrotexnika materiallari”. Toshkent. O‘qituvchi – 1994 yil. 160-bet.
2. B.X.Karimov, Yu.A.Ganin. “Radiotexnika asoslari”. Toshkent. O‘qituvchi – 1993 yil. 129-bet.
3. X.Nigmatov. “Radioelektrotexnika asoslari”. Toshkent. O‘qituvchi – 1994 yil. 368-bet.
4. N.M. Izyumov, D.P. Linde. “Osnovy radiotexniki”. Moskva. Energiya – 1965 god, 480- str.
5. V.N.Ushakov. “Osnovi radioelektroniki i radiotexnicheskie ustroystvo”. Moskva. Visshaya shkola – 1976 god, 424- str.
6. Rustamova D. “Jahonnigengoldibrendlari”.Bekajongazetasi. №15, 22.02.2007 yil, 658-59 betlar.
7. “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi Nizomi. (OO‘MT Vaziri 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug‘Ibilantasdiqlangan).
8. “Elektrotexnikava radiotexnikanamunaviyo‘quvdasturi”. (2012 yil 14 avgustda BD 5142100-3.20 raqamibilanro‘yxatga OO‘MT Vazirligidaro‘yxatgaolingan).

9. N.Gapparov. “Elektrotexnikava radiotexnikafanidano’quvslubiy majmua”. Jizzax – 2014 yil.
10. X.Rixsitillayev «Uy ro’zg’or isitish asboblari» Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2006y

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1- Mavzu: Elektr o'lchash asboblari qo'yiladigan shartli grafik belgilar va texnik talablar.

Elektr energiya ishlab chiqari va iste'mochilarga yuborish bilan birga ular tamonidan qabul qilinayotgan energiyaning miqdori va sifatini tekshirib turish lozim bo'ladi. Masalan, energiya miqdori schyotchik, tok kuchi amper, kuchlanish volt metr, quvvat vattmetr, tok chastotasi chastotometr bilan o'lchanadi. Quyidagi jadvalda bazi elektr o'lchov asboblarning nomi va shartli belgilari berilgan.

Har qanday elektr o'lchov asbobi elektr toki ta'sirida yuz beradigan biror xodisa orqali ishlangan bo'ladi. Hamma elektr o'lchov asboblari bunday hodisa mexanik energiyaga aylantiriladi va asbobga o'rnatilgan ko'rsatgichni (strelka) harakatlantiradi.

Elektr o'lchov asboblari nomi va shartli belgilari.

O'lchanadigan kattalik	Priborning nomi	Shartli belgisi	O'lchov birligi
Tok kuchi	Ampermetr	A	Amper
	Milliampermetr	mA	Milliamper
Kuchlanish	Voltmetr	V	Volt
	Millivoltmetr	mV	Millivolt
Quvvat	Vattmetr	W	Vatt
	Kilovattmetr	kW	Kilovatt
Energiya	Elektr energiyasi schyotchigi	kWh	Kilovatt-soat
Qarshilik	Ommetr	Ω	Om
	Megoommetr	m Ω	Megom

Magnit elektrik stansiyasidagi o'lchov asboblari o'zgarmas magnit maydoni bilan shu maydonda joylashgan o'tkazgichdagi tokning o'zaro ta'siriga asoslangan. Ular faqat o'zgarmas tok zanjiridagi elektr miqdorini o'lchash uchun qo'llaniladi.

Elektromagnit sistemasidagi o'lchov asboblari elektr toki o'tib turgan o'ram atrofida hosil bo'ladigan magnit maydoni bilan shu o'ram orasiga joylashgan temir o'zakning o'zaro ta'siri asosida ishlanadi va o'zgarmas tok zanjirida ham, o'zgaruvchan tok zanjirida ham qo'llanilaveradi.

Elektrodinamik sistemasidagi o'lchov asboblari. Bunday asboblari elektr toki o'tib turgan ikkita alohida o'ramning o'zaro ta'siri asosida ishlanadi va

elektromagnit sistemasidagi elektr o'lchov asboblari singari ham ikkala tok zanjirida ham qo'llaniladi.

Har qanday elektr o'lchov asboblari ham elektr miqdorlarni o'lchash paytida bir oz xatolikka yo'l qo'yadi .

O'lchanayotgan miqdorning xaqiqiy qiymati bilan o'lchov asbobi ko'rsatgan qiymat orasidagi tafovut absolyut hatolik deb ataladi va Δ (delta) harfi bilan belgilanadi. Bu harf o'lchanayotgan miqdori belgilovchi harf oldiga yoziladi. Masalan, kuchlanishni volt metr bilan o'lchash paytida sodir bo'ladigan absolyut xatolik ΔU shaklida yoziladi.

Absolyut xatolik o'lchov asbobining qanchalik o'lchay olishi xaqida to'la tasovur bera olmaydi. Bunga sabab, juda katta miqdorlarni o'lchaganda ham , kichik miqdori o'lchaganda ham absolyut hatolik bir hil son bilan ifoda qilinadi. Masalan, 100A tok kuchini o'lchashda absolyut xatolik $\Delta I = 5A$ bo'lsa , 10 A tok kuchini o'lchashda ham o'shancha bo'ladi.

Elektr o'lchov asboblarining qanchalik aniq o'lchashini ifodalash uchun keltirilgan xatolik degan tushinchadan foydalaniladi.

Keltirilgan xatolik deb, absolyut xatolikni elektr o'lchov asbobining shkalasida ko'rsatilgan eng katta miqdoga nisbatini aytiladi. Keltirilgan xatolik prosent bilan ifodalanadi.

Elektr energiya schyotchigidan boshqa hamma o'lchov asboblari, keltirilgan xatolikning kattaligiga qarab yettita klassga bo'linadi:

0,1; 0,2; 0,5; 1,0; 1,5; 2,5; va 4,0





Har qaysi asbobning aniqlik klass nomeri shu asbobdagi keltirilgan xatolikning miqdoriga teng bo'ladi. Masalan, 200 ampergacha bo'lgan tok kuchini o'lchay oladigan ya'ni shkalasidagi eng katta raqam 200A bo'lgan ampermetrning aniqlik klasi 1,0 bo'lsa, shu ampermetr bilan shu ampermetr bilan o'lchash paytida faqat 1% xatoga yo'l qo'yiladi. Boshqacha aytganda, o'lchanayotgan tok kuchining ampermetr ko'rsatayotgan qiymati haqiqiy qiymatidan faqat 1,0% farq qiladi.

0,1 va 0,2 klass o'lchov asboblari juda aniq ishlaydi, shuning uchun bunday asboblari asosan tekshirish va tadqiqot ishlarida qo'llaniladi.

Texnikada aksari 0,5 va undan ko'proq prosent xatoga yo'l qo'yadigan asboblari ishlatiladi.

Elektr o'lchov asboblarining shkalasida bir necha shartli belgilar yozilgan bo'ladi. Bunday belgilar shu asbob bilan shu asbob bilan qanday kattalikni o'lchash mumkin ekanligini , asbob qanday toka mo'ljallangan ekanligini , asbobning qanday sistemaga va qanday aniqlik klassiga taaluqli ekanligini , asbobni ishlatishda qanday holatda o'rnatish lozimligini va nihoyat asbobning izolyasiyasi qanday kuchlanishga bardosh bera olishini ko'rsatadi.

Quyidagi jadvalda elektr o'lchov asboblarning shkalasida yozilgan shartli belgilar va bunday belgilarning manosi berilgan.

Shkalada ko'rsatilgan shartli belgilar	Shartli belgining ma'nosi
	Magnitaelektrik sistemadagi o'lchov asbobi
	Elektromagnit sistemadagi o'lchov asbobi
	Elektrodinamika sistemadagi o'lchov asbobi
—	O'zgarmas tok zanjirida o'lchash uchun mo'ljallangan asbob
~	O'zgarchan tok zanjirida o'lchash uchun qo'llaniladigan asbob
	O'zgarmas tok zanjirida ham, o'zgaruvchan tok zanjirida ham ishlatilishi mumkin bo'lgan elektr asbob
↑	Asbob vertikal holatda o'rnatilishi lozim
→	Asbob gorizantal holatda o'rnatilishi lozim
0,5	Asbobning aniqlik klass nomeri

AMALIY MASHG'ULOT

2-Mavzu: O'lchash jarayonida yuzaga keladigan absolyut va nisbiy xatoliklarni hisoblash

Xalq xo'jaligida elektrik o'lchashlarning ahamiyati to'g'risida ma'lumot

O'lchash texnikasi xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida fan va texnika taraqqiyotini ilgari suruvchi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalarni o'zaro taqqoslamay turib, ularni ilmiy jihatdan asoslab bo'lmaydi. Bunda o'lchash texnikasining bir tarmog'i bo'lgan elektr o'lchash texnikasi katta ahamiyatga ega.

Elektr o'lchash usuli elektr va elektr bo'lmagan kattaliklarni uzoq masofadan o'lchash (telemetriya) imkonini beradi. Telemetrik o'lchashlar chuqur burg'ilanadigan quduqlarda, Erning sun'iy yo'ldoshlarida keng qo'llaniladi. Zamonaviy ishlab chiqarishda elektr o'lchashlar texnikasi mashina va mexanizmlarga ta'sir etib, har xil texnologik jarayonlarni kuzatish imkoniyatini beradi. SHuning uchun ham ular ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik

boshqarishining asosiy bo'g'ini hisoblanadi Elektr o'lchash texnikasi yordamida amalda ma'lum bo'lgan barcha fizik miqdorlar, ya'ni elektrik va noelektrik miqdorlarni, o'zgaras va vaqt bo'yicha o'zgaruvchan miqdorlarni keng ko'lamda va uzoq masofadan o'lchash mumkin.

Elektr o'lchash usullari (bevosita baholash usuli, taqqoslash usuli)

haqida ma'lumot

Elektr o'lchash usullariga *bevosita baholash usuli* va *taqqoslash usullari* kiradi. Agar o'lchanadigan kattalikning qiymati oldindan darajalab qo'yilgan o'lchash asbobining hisoblash qurilmasidan bevosita olingan bo'lsa, bunday o'lchash *bevosita baholash usuli* deyiladi. Masalan, tok kuchini o'lchash ampermetr bilan, kuchlanishni o'lchash voltmeter bilan, quvvatni o'lchash vattmetr bilan olib boriladi va hokazo.

Agar o'lchanadigan kattalikning qiymati o'lchov namunasi bilan solishtirib aniqlansa, bunday o'lchash usuli *taqqoslash usuli* deyiladi. Taqqoslash usuli o'z navbatida nol differensial, almashtirish va ustma-ust tushirish usullariga bo'linadi. Taqqoslash usuliga ko'priksimon zanjirlardagi qarshilik, sig'im va induktivliklarni yoki potensimetrlardagi kuchlanish va EYUK larni o'lchash usullari misol bo'la oladi. Amalda taqqoslash usullaridan nol va differensial usullari eng ko'p qo'llanadi.

Nol usulda o'lchanayotgan kattalikning qiymati namuna o'lchov bilan solishtirishda hosil bo'lgan farq nolga tenglashguncha o'zgartirib boriladi. Bunga potensimetrdagi kuchlanishni, muvozanat ko'priksimon zanjirlarda qarshilikni o'lchashlar misol bo'la oladi. Solishtirish farqi solishtirish asbobida yoki nol indikatorida kuzatiladi. Nol o'lchash usuli juda aniq o'lchash usulidir. Chunki bunday o'lchashda yuqori aniqlikli namuna o'lchovi va sezgirligi yuqori taqqoslash asbobi, masalan galvonometr ishlatiladi.

Differensial usulda o'lchanayotgan kattalikning qiymati namuna o'lchov bilan taqqoslanadi va hosil bo'lgan farq oddiy elektr o'lchash asbobi bilan o'lchanadi. Differensial usul bir-biridan kam farq qilgan ikkita miqdorni taqqoslash va o'lchash uchun ishlatiladi. Shuning uchun ham bu usulning o'lchash aniqligi yuqoridir. Masalan, ikki miqdorning farqi 1% ga teng bo'lib, bu farq 1,5% xatolik bilan o'lchansa, u holda o'lchanadigan miqdor 0,015% xatolik bilan o'lchanadi.

YUqorida ko'rib chiqilgan usullarning qaysi biridan foydalanmaylik, o'lchash natijasini to'g'ridan – to'g'ri yoki bilvosita olish mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri o'lchash – bu o'lchanuvchi miqdorni to'g'ridan-to'g'ri tajribadan, ya'ni bevosita o'lchash asbobining ko'rsatishidan olishdir.

Bilvosita o'lchash – bu aniqlanishi lozim bo'lgan miqdorni shu miqdorni va bevosita o'lchash mumkin bo'lgan boshqa miqdorlarni o'zaro bog'lovchi ma'lum

ifodadan topishdir. Masalan, kuchlanishni voltmetr yordamida va tokni ampermetr yordamida o'lchab, qarshilikni topishdir. Ba'zi hollarda ayniqsa, ilmiy tekshirish ishlarida o'lchash natijasi o'lchanuvchi miqdor bilan tenglamalar orqali bog'langan bir qancha miqdorlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'lchab, so'ngra tenglamalarni echish orqali topiladi va bunday o'lchash birgalikdagi o'lchash deb ataladi. Bunga materiallar qarshiliklarining temperatura koeffitsientini topish misol bo'ladi.

O'lchash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar (absolyut xatolik, nisbiy xatolik, davriy xatolik, tasodifiy xatolik)

Har qanday o'lchashda o'lchash natijasi o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymatidan biroz farq qiladi. Bu farq *o'lchash xatoligi* deb ataladi. Ba'zan o'lchash natijasini baholashda "*o'lchash aniqligi*" dan foydalaniladi. O'lchash aniqligi o'lchash natijasining haqiqiy miqdoriga qanchalik yaqinligini ko'rsatadi. YUqori o'lchash aniqligining yuqori bo'lishiga o'lchash xatosi kichik bo'lganida erishiladi.

O'lchangan miqdor (A_o) bilan o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymati (A_h) orasidagi ayirma o'lchashdagi absolyut xatolik deb ataladi va Δ bilan belgilanadi, ya'ni:

$$\Delta = A_y - A_x$$

Absolyut xatoning o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymatiga nisbati o'lchashdagi nisbiy xatolik deb ataladi va β bilan belgilanadi, ya'ni:

$$\beta = \frac{\Delta}{A_x} \quad (1)$$

Agar o'lchangan miqdor o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymatidan katta bo'lsa, o'lchashdagi nisbiy xatolik musbat va, aksincha, kichik bo'lsa, manfiy bo'ladi.

Agar (1) formuladagi Δ o'rniga $\frac{\gamma A_{\max}}{100\%}$ ((6.1) formulaga qarang) ni qo'ysak, nisbiy xatolik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\beta = \frac{\gamma A_{\max}}{A_x};$$

Demak, o'lchanayotgan miqdor asbobning o'lchash chegarasi (A_{\max}) ga yaqin bo'lsa, o'lchashdagi nisbiy xatolik asbobning keltirilgan xatosi γ ga yaqin bo'ladi.

Xatoliklarning o'zgarish xarakteriga qarab ularni davriy va tasodifiy xatoliklarga ajratish mumkin.

Davriy xatolik - bu bir xil miqdorlarni qayta o'lchaganda o'z qiymatini yoki o'zgarish qonuniyatini o'zgartirmaydigan xatolikdir.

Tasodifiy xatolik -bu bir xil miqdorni qayta o'lchaganda o'z qiymatini biror qonuniyatga bo'ysunmagan holda tasodifan o'zgartiruvchi xatolikdir.

Umuman, o'lchash xatoligiga bir qancha sabablar ta'sir ko'rsatadi. Bularga asbobni o'lchanayotgan miqdorning diapazoniga, asbobning o'zi qabul qiladigan quvvatiga, sezgirligiga nisbatan noto'g'ri tanlash, asbobni noto'g'ri ishlatish (tashqi sharoitning normal sharoitdan farq qilishi, asbobni to'g'ri o'rnatmaslik), o'lchash sistemalarini noto'g'ri tanlash va boshqalar kiradi.

Davriy xatolik o'z navbatida o'zgarmas va o'zgaruvchan xatoliklarga bo'linadi. Qayta o'lchaganda o'z qiymati va ishorasini o'zgartirmaydigan xatolikka *o'zgarmas davriy xatolik* deyiladi. Bunga misol tariqasida o'lchashda qo'llanadigan o'lchovning haqiqiy qiymati yuqori aniqlik bilan o'lchanmaganligini keltirish mumkin. Ma'lum qonuniyat bilan o'zgaruvchi xatolikka esa *o'zgaruvchan davriy xatolik* deyiladi. Agar o'lchash natijasi kuchlanishga bog'liq bo'lsa, akkumulyatorning zaryadsizlanishidagi kuchlanishning bir tekis kamayishi o'zgaruvchan davriy xatolikka misol bo'la oladi. Davriy xatolik keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlab, tuzatish kiritish orqali mazkur xatolikni kamaytirish va butunlay yo'q qilish mumkin.

Agar davriy xatolik tasodifiy xatolikdan kichik bo'lsa, bir xil miqdorni o'lchashda uni bir necha bor o'lchab, o'lchash natijasi sifatida ularning o'rtacha qiymatini olish maqsadga muvofiq, ya'ni

$$A_{yp} = \frac{A_1 + A_2 + A_3 \dots + A_n}{n};$$

bunda $A_1, A_2, A_3 \dots, A_n$ - har bir o'lchash natijasi, n - o'lchashlar soni.


O'lchashlar soni katta bo'lganda $A_{o'r}$ o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymatiga yaqinlashadi.

Bilvosita o'lchashda ikkita va undan ortiq o'lchash asboblaridan foydalaniladi. Bu holda bilvosita o'lchashdagi xatolik bevosita o'lchashdagi xatolikning algebraik yig'indisi shaklida yozib, topiladi.


AMALIY MASHG'ULOT

3-mavzu: Tok va kuchlanishni o'lchash

Tok kuchi ampermetr bilan o'lchanadi. O'lchanadigan tok zanjiriga ampermetr doimo ketma-ket ulanadi. O'zgarmas tok kuchini o'lchashda magnitoelektrik sistemadagi ampermetr qo'llaniladi, chunki magnitoelektrik sistemadagi ampermetrning shkalasi bir tekis bo'lingan bo'ladi.



O'zgaruvchan tok kuchini o'lchash uchun elektromagnit sistemasidagi ampermetr ishlatiladi. Bunday ampermetr bilan o'zgarmas tok kuchini ham, o'zgaruvchan tok kuchini ham o'lchash mumkin. Elektromagnit sistemadagi asboblarning shkalasi bir tekis bo'linmagan. Oz miqdordagi tok kuchini o'lchash uchun milliampermetr va mikroampermetrlar ishlatiladi. Katta miqdordagi tok kuchini o'lchash uchun o'zgarmas tok zanjirlariga ampermetr shunt bilan birgalikda ulanadi, o'zgaruvchan tok zanjirlariga esa maxsus tok transformatorlari orqali ulanadi. Shunt-elektr qarshiligi juda oz bo'lgan miss plastinkadan iborat. Shunday plasmtinka o'lchanadigan tok zanjiriga ketma ket ulanib, ampermetr unga papalel qilib ulansa, o'lchanuvchi tok ikkiga ajraladi va uning bir qismi ampermetr orqali, ikkinchi qismi esa shunt orqali o'tadi



Shuntning qarshiligi ilgaridan hisoblangan va ampermetr qarshiligiga nisbatan bir necha marta kam bo'ladi. Shunt qarshiligini hisoblash uchun o'lchanadigan tokning ampermetr orqali o'tadigan tokga nisbati harfi bilan belgilaymiz:

$$n = \frac{I}{I_A}$$

n - o'lchash chegarasining shunt yordamida bir necha barobar kengayishini ko'rsatadi. Shunt orqali o'tadigan tok I_{sh} Krixgof qonuniga binoan:


$$I_{sh} = I - I_A = n I_A - I_A = (n - 1) I_A \quad \frac{R_{sh}}{R_A} = \frac{I_A}{I_{sh}} = \frac{I_A}{(n - 1) I_A} = \frac{1}{(n - 1)} \quad \text{bo'lgand } R_{sh} = \frac{R_A}{n - 1};$$

Tenglamalarda R_{sh} – shunt qarshiligi R_A – ampermetr qarshiligi

Shunt qarshiligini hisoblab chiqish uchun shu formuladan foydalanish lozim.

Kuchlanishni o'lchash

Kuchlanish voltmeter bilan o'lchanadi. Voltmetr elektr zanjiriga doimo parallel qilib ulanadi. Voltmetr ulangan zanjirning elektr rejimi o'zgarasligi uchun voltmeterning qarshiligi juda katta bo'lishi va voltmeter orqali o'tadigan tok kuchi nihoyatda kichik bo'lishi lozim.




O'zgarmas tok zanjirida kuchlanishni o'lchash uchun aksari magnitoelektrik sistemasidagivoltmetrlar ishlatiladi.

600 voltgacha bo'lgan kuchlanishni voltmetr bilan bevosita o'lchash mumkin.


Voltmetrning standart shkalalari ;

0-25; 0-50; 0-140; 0-260; 0-600

600 volt dan ko'p bo'lgan kuchlanishni o'lchash uchun voltmetr o'zgarmas tok zanjiriga qo'shimcha qarshilik bilan ulansa,



O'garuvchan tok zanjiriga maxsus kuchlanish transformatori orqali ulanadi, u quyidagi ko'rinishda bo'ladi.



Voltmetrni kuchlanish transformatori orqali ulash.

Qo'shimcha qarshilik zanjirga ulanishdan oldin hisoblab chiqiladi va voltmetrning qarshiligiga nisbatan ancha katta bo'ladi. Qo'shimcha qarshilik voltmetr bilan ketma-ket ulanadi, shuning uchun:

$$\frac{R_{qush}}{R_V} = \frac{U_{qush}}{U_V}$$

Bu tenglamada $R_{qo'sh}$ -qo'shimcha qarshilik; R_v -voltmetr qarshiligi; $U_{qo'sh}$ - qo'qshimcha qarshilik zanjimlaridagi kuchlanish; U_v -voltmetr zanjimlaridagi kuchlanish.

Qo'shimcha qarshilikni hisoblash uchun o'lchanadigan kuchlanish U ning bevosita voltmetr o'lchay oladigan kuchlanish U_v ga nisbatini m harfi bilan belgilaymiz:

$$m = \frac{U}{U_v}$$







Bunda, m -o'lchov chegarasining qo'shimcha qarshilik rdamida necha barovar ko'payishini ko'rsatadi. Demak, $U_{qo'sh} = (m-1) U_v$ Endi $R_{qo'sh}$ ni topamiz: $R_{qo'sh} = (m-1) R_v$






Voltmetrning o'lchash chegarasini qo'shimcha qarshilik yordamida =10 marta ko'paytirish zarur, deyaylik. Shunda $R_{qo'sh} = (10-1) R_v = 9R_v$ bo'ladi.

Demak qo'shimcha qarshilik voltmetrning qarshiligidan 9 marta ziyod. Kuchlanish transformatorini ulash yuqori kuchlanishli zanjirdagi kuchlanishni, tok transformatorini ulash esa yuqori kuchlanishli zanjirdagi tok kuchini havf xatarsiz o'lchashga imkon beradi. Ikkilamchi obmotka birlamchi obmotkadan izolyasiyalangan va yerga ulangan (zazemleniya) bo'ladi, shu sababli ampermetrga yoki voltmetrga tasodifan tegib ketish havfli emas.



Tok transformatoridan foydalanganda ikkinchi obmotka ampermetrga ulangan yoki qisqa tutashtirilgan bo'lishi shart. Ikkilamchi obmotkani zanjirdan uzish vaqtida unda katta kuchlanish paydo bo'ladi. Chunki uni uzishda magnit oqimi juda ortib ketadi. Shu bilan birga transformator ikkilamchi obmotkasining elektr yurituvchi kuchi ham nihoyat darajada ortadi, bu esa shu yerda ishlayotgan xodimlarning hayoti uchun juda xavflidir.

Qo'shimcha materiallar (videolar, keys-stadilar va boshqalar)







*



*

12.1 - rasm





12.3 - rasm

